

Ramazonova Ra’no

Termiz davlat universiteti Rus va qardosh tillar fakulteti tojik tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Iskandarova Zulbib

Termiz davlat universiteti Rus va qardosh tillar fakulteti tojik tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy Rahbar :Jamshid Jumaqulov

Termiz davlat universiteti Rus va qardosh tillar fakulteti tojik tili yo‘nalishi katta o‘qituvchisi

Anatatsya. *Mazkur maqolada Maxtuquli hayoti va ijodi haqida so‘z boradi . Qolaversa, maqolamizda shoirning asarlari ularning o‘zbek va tojik xalqlari orasidagi ahamiyatiga o‘rni e’tirof etilgan. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan. Maqola so‘ngida xulosa berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Maxtumquli, shoir va mutafakkir, do‘stlik kuychisi, shoirning hayoti va ijodi.*

THE BEST FRIENDSHIP DOG

Anatatsya. This article talks about Makhtukuli's life and work. In addition, in our article, the importance and place of the poet's works among the Uzbek and Tajik peoples is recognized. Reasonable opinions and comments are used throughout the article. A conclusion is given at the end of the article.

Key words: Makhtumquli, poet and thinker, singer of friendship, life and work of the poet.

ЛУЧШАЯ СОБАКА-ДРУЖБА

Анатация. В данной статье рассказывается о жизни и творчестве Махтукули. Кроме того, в нашей статье признается значение и место творчества поэта среди узбекского и таджикского народов. На протяжении всей статьи используются обоснованные мнения и комментарии. В конце статьи дается заключение.

Ключевые слова: Махтумкули, поэт и мыслитель, певец дружбы, жизнь и творчество поэта.

“Biz g‘ururi, oriyati, ma‘naviyati baland xalqmiz. Bu shubhasiz kata boylik albatta. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab- avaylab kelgan bu boylikni yo‘qotib qo‘sak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi.”⁸

Sh.M.Mirziyoev

⁸ Yangi O‘zbekiston tarqqiyot strategiyasi . SH . Mirziyoev. “O‘zbekiston ‘‘ Toshkent- 2022 yil .284 bet

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoev hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston o‘rtasidagi chegaralar ochildi. Bu mamlakatlar o‘rtasida strategik harakatlar bilan bir qatorda ilmiy-adabiy-madaniy aloqalar ham yo‘lga qo‘yildi. Termiz davlat universitetida turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumlul Firog‘iy tavalludining 300 yilligiga bag‘ishlangan “Maxtumlul do‘stlik kuychisi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil etilgani bu so‘zlarning yaqqol dalilidir.

Sh.M.Mirziyoev yana bir o‘rinda o‘zbek va turkman xalqlarining do‘stligi haqida shunday degan edi: “Turkiy Dunyoning Yunus Emro, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumlul, Abay, To‘qtag‘ul kabi buyuk namoyandalarning nomlarini barchamiz katta hurmat bilan tilga olamiz”⁹

Jonajon O‘zbekistonimizda 130-dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Mamlakatimiz aholisining 23 foizdan ortig‘ini o‘zbek bo‘lmaganlar tashkil etadi. Ularning aksariyati tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar va turkmanlardir. Bu xalqlarning har biri o‘z milliy va madaniy qadriyatlarga ega. Statistik malumotlarga qaraganda, tojik millati Respublikamiz aholisining 1 million 300 mingini tashkil etadi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki tojiklar aholi soni bo‘yicha o‘zbeklardan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi.. Ularning aksariyati Surxondaryo, Samarqand, Namangan, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida istiqomat qilib, boshqa xalq va elatlar, ayniqsa, o‘zbek va turkmanlar bilan birga yashab, mehnat qilmoqda. Termiz shahrida, hatto Tirmiz davlat universitetida ham tojiklar, o‘zbeklar va turkmanlar bilan birgalikda do‘stona faoliyat olib borishadi. 20 aprelda Maxtumlul Firog‘iy tavalludining 300 yilligini birlikda bir butun bo‘lib nishonlaganlari so‘zimizning isbotidir..

Mashhur adabiyotshunos A. Samadov tojik va o‘zbek xalqlarining do‘stligi, birodarligi haqida ko‘p so‘zlar yozgan. Bu haqda qayta-qayta gapirishni hayotning o‘zi talab qilmoqda. Asrlar davomida qardosh, ahil va yaqin qo‘shni bo‘lib kelgan xalqlarimizning hamisha birligini tarannum etishimiz, madh etishimiz kerak. Bugungi hayot bizni bir-birimiz bilan munosabatlarimizni mustahkamlashga undaydi. Zero baxtli va sodatli hayot kechirishimiz, har qanday sohada taraqqiyotga erishishimiz zamirida bizning do‘stligimiz va hamkorligimiz yotadi. Shu bois xalqimiz bugun ham o‘tmish an‘analarini iftixor tuyg‘usi bilan davom ettirib, azaliy do‘stlik, birodarlikni asrab-avaylab kelmoqda. Yozuvchi va shoirlarga kelsak, ular o‘z asarlari va she‘rlarida ana shu yoqimli do‘stlik tuyg‘usini qizg‘in tarannum etganlar.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, qo‘shni xalqlarning urf-odatlar va madaniy-milliy an‘analari jihatidan adabiy aloqalari juda yaqindir. Bu holatni asrlar davomida yonmayon yashab kelayotgan Markaziy Osiyo xalqlari misolida yaxshi kuzatishimiz mumkin.

Ta‘kidlash joizki, tojik, o‘zbek va turman xalqlari o‘rtasidagi aloqalar, asosan, ularning adabiyoti mushtarakligidan shakllangan. Ushbu maqolada Maxtumlul

⁹ Milliy tklanishdan milliy yuksalish sari.SH. Mirziyoev “O‘zbekiston” HMUY 2020 yil.. 261 bet

Firog‘iyning tojik va o‘zbek adabiyoti bilan aloqasiga to‘xtalib o‘tmoqchi bo‘lganimiz uchun, avvalo, uning hayoti va faoliyatiga nazar tashlashni lozim deb bildik

Turkman adabiyotining atoqli shoiri va mutafakkiri hisoblangan Maxtumqul Firog‘iy 1724-yilda Turkmanistonning janubi-g‘arbiy qismida Artek daryosi bo‘yidagi Hojigovshan qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi Davlatmamat Azodiy (1700-1760) ham o‘z davri shoirlaridan bo‘lib, Ozodiy taxallusi bilan ijod qilgan. Shoir xattotlikni oilasida, ya‘ni otasidan o‘rgangan. So‘ngra Ovul maktabiga kirib, mulla Niyoz Solih qo‘lida tahsil olgan. Maxtumquli o‘zining aql-zakovati, donoligi bilan boshqa shogirdlardan ajralib turardi. Idris bobo madrasasida o‘qishni davom ettiradi. Keyinchalik Sherg‘ozixon madrasasida o‘z bilimi kamolga yetdi. U zargar edi. Afg‘oniston, Eron, Hindiston, Ozarbayjon, Samarqand, Turkiston shaharlarida ilmiy ijodiy safarlarda bo‘lgan.

Maxtumquli bizga 20 ming misraga yaqin lirik, falsafiy, axloqiy she‘r va dostonlar qoldirganini adabiyotshunoslar alohida ta‘kidlaydilar. Maxtumquli she‘rlarida turkman xalqining hayoti va urf-odatlarini, o‘z davrining muhim ijtimoiy-siyosiy voqealari o‘z ifodasini topgan. Shoirning ichki dunyoqarashi “Agar bo‘lmasa”, “Kelgay”, “Bilan”, “Nayline”, “Yetmas”, “Bular”, “Bular”, “Vaqt” va boshqa she‘rlarida ko‘zga tashlanadi. U o‘z asarlarida turkman avlodlarini hamjihatlikka chaqirgan. Ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni tugatishga harakat qildi. Masalan: “Taka, Yovmut, Koklang, Yazir, Alali – Bir yurtni qul qilsak, beshtamiz...”. Shoirning bu misralari o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

“ So‘zim tushunmaydi deb kuyunma,
Jahon kengdir sendan bilimdonlar.”¹⁰

Shoir she‘rlarida o‘z vataniga bo‘lgan muxabati va sog‘inchini tarannum etgan. Buni quyidagi sherimiz misolida ko‘rishimiz mumkun.

“Sahar turib, vatan seni chog‘larman,
Gulshanli sarchaman deya yig‘larman.
Xushlashib bu miskin jonim dog‘larman,
Maqsad-murodinga yetirmas hijron

Firog‘iy, vatan deb qon to‘kar ko‘zim,
Boqib qarab turmish hijrona yuzim.
Birodarsiz g‘amda qoldim bir o‘zim,
Baridan tinmdirmish bu zolim hijron.”¹¹

¹⁰ Do‘stlik xamsasi .’’ Tasvir’’ nashriyoti-2019 yil. 206 -bet

¹¹ “Maxtumqulinoma.” Oraz Yag‘mur. Toshkent “O‘zbekiston” 2016 yil. 171

Maxtumquli mashhur fors-tojik va o‘zbek shoirlari Firdavsiy, Nizomiy, Fuzuliy, Navoiy ijodidan bahramand bo‘lgan. Uning ishqiy she‘rlari o‘zining ohangdorligi, teran falsafiy mohiyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Maxtumqulishinos mutaxassislarining yozishicha, u Menglixon ismli qizni chindan ham sevgan, lekin ularning turmush qurishi mumkin emas edi. Menglixon Maxtumqulining qarindoshi, ya’ni xolasining qizi bo‘lib, ular bolalikdan bir-birini sevishgan. Mahtumquli otasi va ikki ukasi vafot etgani uchun ko‘p iztirob chekadi, natijada sevganiga yetib bora olmaydi. Shoir sherida sevgisi haqida shunday so‘zlaydi;

Ishq yo‘lin havas aylab,
Kelgan bormi yoronlar.
Dardimni bayon etsam,
Bilgan bormi yoronlar.

Tob etmayin zulmga,
Bordi holim o‘limga.
Yig‘lamayin holimga,
Kulgan bormi, yoronlar.

Shoir she‘rlarida hayot va mamot, inson va borliq g‘oyalari, go‘zal insoniy fazilatlar va axloq, islom va tasavvufning mazmun-mohiyati yaqqol seziladi. Ko‘pgina she‘rlarida Qur‘oni Karim oyatlari va payg‘ambarlik hadislaridan foydalangan. Shuningdek, Ahmad Yassaviy payg‘ambarlar va buyuk ilm-fan va adabiyot zotlari, masalan, Bahovuddin Naqshband haqida qiziqarli mulohazalar bildirgan.

Maxtumquli qarashlari xalq og‘zaki ijodiga yaqin. Turkman xalqining maqol va matallari, hikmatli so‘zlari va aforizimlari malum qismini Maxtumquli ijodidan olgan. Ayniqsa quyidagi baytdagi so‘zlar xalq orasida mashhur mataliga aylangan.

Olimga ergashsang ochilar ko‘zing,
Johilga ergashsang ko‘rdek bo‘larsan.

Maxtumquli asarlari Yevropa va rus sharqshunoslari, turkman, o‘zbek, forsiyzabon olimlar tomonidan miqyosiy o‘rganildi. Xususan, Navoiy asarlarining Maxtumquliga ta’siri va boshqa adabiy ta’sir masalalari (S.Qoriyev, “Navoiy va Mahtumquli”, “Maxtumquli islom shoiri”, “Maxtumquli g‘azallarida o‘zbek xalq qo‘shiqlari” va boshqalar) muhokama qilindi. Maxtumqulining “Namasan”, “Airildim”, “Oshiqam”, “Ustadat ma’ravdan”, “Koring” kabi she‘rlarining bir qismi o‘zbek qo‘shiqchilari: Komiljon Otaniyozov, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonovlar tomonidan ijro etilgan.

Maxtumquli (Firog‘iy) she‘riyati O‘rta Osiyodagi barcha xalqlarning ma’naviy mulkiga aylangan. She‘rlari o‘zbek va tojik tillariga tarjima qilingan. Uning she‘rlari nafaqat turkmanlarning, balki butun turkiy xalqlarning faxridir. Bir necha asrlar davomida bu shoir she‘rlari bilan millionlab qalblar munavvar bo‘ldi. Yurtimizda

Ahmad Yassaviy, So‘fi Ollohyor, Boborahim Mashrab, Muhammad Fuzuliy ijodi bilan bir qatorda uning asarlari ham sevilib, ardoqlanadi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, yurtimizda bu shoirning hech bo‘lmaganda bir baytini yod bilmaydigan odam yo‘q.

Aytish joizki, Maxtumquli she‘rlari bilan tojik va o‘zbek kitobxonlarini yaqindan tanishtirishda bir qancha sara tarjimonlarimiz katta mehnat qildilar. Bu jarayon hali ham davom etmoqda. Chunki shoir she‘rlari dengizdek cheksizdir. Bu shoir she‘rlarini tarjima qilishda hali mohir tarjimonlar ko‘p mehnat qilishi kerak. Ushbu vazifalarni bajarishda tarjimonlardan mahorat va tayyorgarlik talab qiladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, Maxtumquli g‘azallarining asl ma‘nosini to‘liq anglash uchun turkman tilini bilishning o‘zi yetarli emas, balki uning falsafasi, dunyoqarashini ham teran anglash zarur. Qolaversa, bu shoir she‘rlarini tojik va o‘zbek tillariga tarjima qilish uchun tasavvuf adabiyotidan, turkman tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan, turkman xalqi og‘zaki ijodidan to‘liq xabardor bo‘lish zarurdir.

O‘tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab o‘zbek kitobxonlari Maxtumquli she‘rlarining Jumaniyoz Sharifov, Ergash Ochilov, Muzaffar Ahmad, Mirzo Kenjabek ijodi orqali tarjimasini o‘qib kelmoqda. Ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, Maxtumquli she‘rlari Tojikiston va Eronda ham tarjima va nashr etilgan, afsuski, biz ularni topa olmadik.

Aytish joizki, Mahtumquli she‘rlarining o‘zbek tiliga tarjimasida surxondaryolik Shayx Abdulmo‘min (Abdumo‘min Jumayev) va Jumanazar Zulpiyevlar tarjimonlar orasida alohida o‘rin va mavqega ega. Bu tarjimonlarning asosiy yutuqlaridan biri turkman millatiga mansubligidir. Ikkinchidan, ularning har ikkisi ham qariyb o‘ttiz besh yildan buyon Maxtumquli she‘rlarini o‘zbek tiliga o‘girishadi. Bu ijodkorlarning tarjimasini “Kamalak” nashriyotida “Vaqf bu...” (1991), Respublika jamg‘armasi nashriyotida “Maxtumquli she‘rlari” (2003) nomi bilan nashr etilgan. Tojikiston. Qo‘shma tarjima 2008 yilda “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida “Saylanma” nomi bilan besh ming nusxada chop etilgan. Mahtumquli she‘riyati muxlislari uchun xushxabar shuki, bu ikki zahmatkash tarjimon navbatdagi kitobni nashrga tayyorladilar. Aytish mumkinki, bu kitoblar uch qadimiy xalq: tojiklar, o‘zbeklar va turkmanlarning do‘stligini mustahkamlashga o‘ziga xos hissa qo‘shadi. Xulosamiz so‘ngini shoirning qalbidan otilib chiqan ushqun qaynoq misralar bilan yakun yasadik.

Uyg‘on xobi g‘aflatdan, ajalsiz ulan ko‘nglim,
Umid uzib olamdan, dargohdan tilan ko‘nglim.
Tiz cho‘kibon, dam urisa, Iso, Xizr ham Ilyos,
Tirilmas zinda bo‘lmas, xud murda bo‘lan ko‘nglim.

1. Yangi O'zbekiston tarqiyot strategiyasi . SH . Mirziyoev. “O'zbekiston “
Toshkent- 2022 yil .284 bet
2. Milliy tklanishdan milliy yuksalish sari.SH. Mirziyoev “O'zbekiston” HMUY
2020 yil.. 313 bet
3. Do'stlik xamsasi . Tasvir” nashriyoti-2019 yil. 206 -bet
4. Maxtumqulinoma. Oraz Yag'mur. Toshkent “O'zbekiston” 2016 yil. 84-bet